

**Nargiza G'ULOMOVA,**  
 Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, f. f. f. d.  
 E-mail: gulomovamoi@mail.ru  
 Tel: (91) 254-50-10

F.f.d., dots. M.A.Abjalova taqrizi ostida

## ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSI UCHUN “NAVODUR USH-SHABOB” DEVONIDAGI G‘AZALLARNI GRAMMATIK TEGHLASH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Alisher Navoiy g‘azallarini tushunarli, o‘qishli bo‘lishini ta‘minlash uchun grammatik teglash va leksik, grammatik jihatdan tahlil qilish lozim. Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika arxaizm va istorizm so‘zlarning vujudga kelishi va ko‘plab so‘z ma‘nolarining tubdan o‘zgarganligi, Navoiy davrida boshqa morfologik xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar, bugun ma‘no o‘zgarishiga, ma‘no torayishiga uchrab yoki so‘zning boshqa atash ma‘nosiga o‘tganligi Navoiy g‘azallari grammatik tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi. Misralarning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligini, ohangdorligini oshirish, baytlarning mazmunan, shaklan mutanosibligiga erishish maqsadida yordamchi so‘z turkumlari hamda ma‘nodosh so‘zlardan foydalanish mahoratini ko‘rsata olganligi maqolada ilmiy tahlillar orqali asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** yordamchi so‘zlar, bog‘lovchi, ko‘makchi, qo‘shimcha, grammatik vosita, grammatik tahlil, shakldosh so‘zlar.

## GRAMMATICAL TAGGING FEATURES OF GHAZALS IN “NAVODUR USH-SHABAB” DIVAN FOR THE AUTHORSHIP CORPUS OF ALISHER NAVOI

Annotation

In order to ensure that Alisher Navoi’s ghazals are understandable and readable, it is necessary to tag them grammatically and analyze them lexically and grammatically. With the lexicology of Navoi’s time, the current lexicon is archaism and historicism, the emergence of words and the radical change of the meanings of many words, narrowing the meaning or changing the meaning of the word to a different meaning shows the importance of grammatical analysis of Navoi’s ghazals. The fact that he was able to show the skill of using auxiliary words and synonyms in order to increase the emotional-expressive coloring and melodiousness of the verses, to achieve the proportionality of the verses in terms of content and form, is substantiated in the article through scientific analysis.

**Key words:** auxiliary words, conjunction, auxiliary, adverb, grammatical tool, grammatical analysis, formative words.

## ТЕКСТ НАУЧНОЙ РАБОТЫ НА ТЕМУ «ОСОБЕННОСТИ ГРАММАТИЧЕСКОЙ РАЗМЕТКИ ГАЗЕЛЕЙ В ДИВАНЕ «НАВОДУР УШ-ШАБАБ» ДЛЯ АВТОРСКОГО КОРПУСА ALISHERA NAVOI

Аннотация

Для того, чтобы газели Алишера Навои были понятны и читабельны, необходимо провести их грамматическую разметку и лексический и грамматический анализ. С лексикологией Навоийского времени, актуальной лексикой является архаизм и историзм, появление слов и коренное изменение значений многих слов, сужение значения или изменение значения слова на иное значение показывает важность грамматической анализ газелей Навои. В статье обосновывается тот факт, что он смог показать мастерство употребления вспомогательных слов и синонимов с целью повышения эмоционально-выразительной окраски и напевности стихов, добиться соразмерности стихов по содержанию и форме. посредством научного анализа.

**Ключевые слова:** вспомогательные слова, союз, вспомогательное слово, наречие, грамматическое средство, грамматический разбор, формообразующие слова.

**Kirish.** Alisher Navoiyning semantik boy xazinasini uning til va tafakkur haqidagi qarashlaridan ham anglashimiz mumkin: “Chun alfoz va maskur mahluqotdin murod ma‘nidir[1]. Navoiyning bu hikmati bilan inson olgan bilimni ifodalay olishi va boshqalarga yetka olishi kerakligini aytadi. Navoiy bir necha yuz yil avval aytgan bu fikrni umumiy tilshunoslikning otasi sanalagan G. Vilgelem bir necha yuz yil keyin takrorlab: “Aqliy faoliyat mutlaqo ruhiydir”[2] deydi. Anglashinadiki, Navoiy Sharq tilshunosligida mavjud bo‘lgan lekseka sohasidagi barcha bilimlardan xabardor bo‘lgan va shu shular asosida turkiy tilning lug‘at boyligini, grammatik xususiyatlarini ko‘rsatib bera olgan.

Qadimiy sharq va g‘arb olimlari yaratgan asarlarda, asosan so‘z shaklini o‘zgartirish uchun xizmat qiladigan vositalarni (turli qo‘shimchalar, affikslarni) va gap tuzish tartib-qoidalarini tadqiq qilganlar. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslik sohasida qiyosiy-tarixiy metodning vujudga kelishi natijasida tillardagi ko‘pgina grammatik xususiyatlarni kengroq o‘rganish mumkin bo‘ldi. Hozirda grammatika tushunchasi keng ma‘noga ega bo‘lib, u tildagi barcha grammatik vositalarni, so‘z turkumlari, so‘zni kichik ma‘nodor bo‘laklarga bo‘lish va so‘z yasovchi hamda so‘z o‘zgartiruvchi turli qo‘shimchalar, affikslar va so‘z tartibini, gapning maqsadga ko‘ra turlarini o‘rganmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** So‘z dahosiga daho so‘zchi sifatida adoqsiz ehtirom va benihoya inja sezgi bilan munosabatda bo‘lgan, ulkan ijodiy, ham badiiy, ham ilmiy, ham tarixiy – merosi bilan bashariyatning tafakkur xazinasini favqulodda beqiyos darajada boyitgan ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiydir[3]. Navoiy turkiy tildagi har bir so‘zning lisoniy ahamiyati va gapdagi o‘rni beqiyosligi xususida o‘z munosabatini asarlari, shu jumladan g‘azallarida ham asoslagan. Uning boy va serqirra ijodiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish asnosida turkiy til rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini alohida e‘tirof etish joiz.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ma‘lumki, tilshunoslik fanida har bir til birliklarining o‘z muhim ahamiyatga ega bo‘lib, har birining gapda alohida bajaruvchi vazifasi mavjud. Shu jumladan, yordamchi so‘z turkumlari gaplarni mazmunan bog‘lashda, ma‘no kuchaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu jadvalda shoir g‘azallarida qo‘llangan yordamchi so‘zlar alohida ko‘rsatildi:

Yordamchi so‘zlar turi	Sof yordamchi so‘z	Vazifadosh yordamchilar
<b>Bog‘lovchi</b>	va, ila, bila, ammo, lekin, goh...goh, xoh...xoh, ne...ne, bir...bir, ya‘ni, ya‘nikim, chunki, negakim, agar, gar, garchi, magar, vagar.	-u, -yu, -da, -ki, kim, bir, balki,
<b>Ko‘makchi</b>	kabi, kebi, birla, ila, bila, uza, chu, uzra, yanglig‘, sori, uchun	-dek, avval
<b>Yuklama</b>	ham, go‘yo, hech, go‘yo, go‘yi	u, mu, -da, -dur, yolg‘iz

Eski o'zbek tilida ham bog'lovchilar vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'lingan: a) teng bog'lovchilar; b) ergashtiruvchi bog'lovchilar[4]. Bog'lovchilar teng munosabatli birliklarni bog'lab, ular orasida tenglashtirish, zidlash, ayirish, inkor, aniqlash, sabab, shart kabi morfologik ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Navoiy "Navodir ush-shabob" devonidagi g'azallarda yordamchi so'zlardan mahorat bilan qo'llaganligini namuna sifatida quyida keltirilgan misralar misolida ko'rishimiz mumkin:

Yo nabi, ruhiy fidoka ahlan **va** sahlan marhabo (7-g'azal)

Jism **ila** jon ichra garchi tushkay oshubi firoq (5-g'azal)

Kim, vasila bo'ldi mahzun jon **bila** jonon aro (20-g'azal)

G'azallarda -u ayiruv bog'lovchisini, o'zaro teng munosabatli ikki leksemani boshlashga xizmat qiladi:

Xatt-**u** zulf-**u** qoshla ring, ey dilbari chobuk, balo (29-g'azal)

Tutub nashot-**u** tarab chang zulfin etma surud (352-g'azal)

Sabza-**u** gul istamon to vo'smav-**u** gulgunadin (360-g'azal)

Teng munosabatdagi sintaktik birliklar ko'pincha bir xil grammatik shaklda, bir xil sintaktik vaziyatda turadi[5]. G'azallarda **jon** leksemasi hamda -u, -yu biriktiruv bog'lovchilari birikib, quyidagi so'z birliklarini hosil qilgan: *jon-u jism, jon-u jahon, jon-u tan, jon-u aql-u din, jon-u aql-u husn, jon-u xonumon, jon-u ko'ngil, jon-u xirman, jon-u umr, jon-u din* kabi.

Bog'lovchi fikrni ma'lum tartibda bog'laydigan va fikrni ifodalashdagi oraliqlarni ko'rsatadigan so'zlar hisoblanadi[6]. G'azallarda **ham** bog'lovchisi, asosan, uyushgan bo'laklar oldidan takrorlanib kelganligini kuzatish mumkin:

*Ham* rasul-**u ham** amin, *ham* mustafo, *ham* mujtabo (8-g'azal)

*Ham* gul isi, *ham* sarv bo'yi ko'ngluma yoqmas (26-g'azal)

*Ham* o'zungni, *ham* meni, *ham* elni qutqarding kelib (58-g'azal)

G'azallarda qo'llangan zidlov bog'lovchilari ko'pincha ikki sodda fikrni yaxlit bir butunlikda ifodalash uchun xizmat qiladi:

**Lek** jannat kavsaridek lavn ila safvat anga (8-g'azal)

Ishq erur qotil va **lekin** may erur kuchlug balo (29-g'azal)

Suda ermas mehr aksi, **balki** daryo jonig' (134-g'azal)

Piri dayr aylar sabuh, **ammo** ko'z ochmas mug'bacha (351-g'azal)

*Yo, yoxud, yo...*, *yo...*, *goh...*, *goh*, *dam...*, *dam*; *bir...*, *bir*; *xoh...*, *xoh* kabi ayiruv bog'lovchilarilari eski o'zbek adabiy tilida qo'llanib, Navoiy g'azallarida ko'p uchraydi:

Va *yoxud* shu'la tushti safhag'a ul so'z etib ta'sir (33-g'azal)

Agar sen etsang anga *xoh* lutf-u *xoh* itob (50-g'azal)

*Xoh* shom o'lsun qorarg'an ro'zgorim, *xoh* subh (104-g'azal)

*Gohe* yig'lar achchig'-achchig', *goh* aylar zahrxand (116-g'azal)

Degaykim, *bir* qurug' shox uzra qolmish *bir* sarig' yafrog' (297-g'azal)

G'.Abdurahmonov g'azallar tarkibida ko'p qo'llangan *na na* inkor bog'lovchisini yuklamalik xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlab, bog'lovchi vazifasida kelganda, ayrim teng huquqli bo'lak (komponent)larga inkor ma'nosini berib, ularni bog'laydi deydi[7]. Quyida "Navodir ush-shabob" devonida inkor bo'lg'lovchisi uchragan g'azallardan misralar keltirdik:

Anga *ne* ibtido paydodurur, *ne* intiho paydo (3-g'azal)

Bu kun erur *ne* nujumu *ne* osmon paydo (34-g'azal)

*Ne* Faridundin asar chun qoldi, *ne* Jamshiddin (69-g'azal)

*Ne* xirad, *ne* hush bizdin istangiz, ey ahli zuhd (126-g'azal)

"Navodir ush-shabob" devonidagi g'azal misralarida sabab, natija ma'nolarini ifodalash uchun xizmat qilgan ergashtiruvchi bog'lovchilar tasnif etidi:

– g'azallarda *aniqlov bog'lovchisi* ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun ishlatilib, bosh gapda ifodalangan fikrni izohlagan:

Bo'lmag'ay erdi muyassar "Xamsa", *ya'ni* panj ganj (7-g'azal)

Boru yo'q, *ya'niki* paydov-u nihonim o'rtading (354-g'azal)

– *sabab bog'lovchisi* ergash gaplarni bosh gapga bog'lab, sabab, natija ma'nolarini ifodalaydi. Navoiy g'azallarida oshiq ruhiy holatini, isztiroblarini, kechinmalarini tasvirlash, maqsadida sabab bog'lovchilaridan foydalangan:

Gul sari boqmadi bulbul, *chunkim*.

Ko'rdi gulgasht etasen gulshan aro. (22-g'azal)

*Negakim* kuymak bila o'lmakni irshod aylaram. (410-g'azal)

Navoiy ahli fano ista, qo'y riyo ahlin

Ki, nayshakar borida tuhfa qilmadi kishi lux. (107-g'azal)

– *shart bog'lovchisi* shart va to'siqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo'lgan munosabatidagi shartni, shu bilan birga, to'siqsizlik ma'nolarini anglatadi. Shart ergash gapning kesimi fe'lining shart formasi orqali ifodalanganda, ergash gap oldidan *agar, garchi, gar, magar* kabi sozlarni keltirish mumkin:

Qo'lin bu barq yorutti, damin buy el ochdi,

*Agar* sipehr uza Muso edi va gar Iyso (6-g'azal);

Jannat-u do'zaxga chekmas, lutf-u qahring bo'lmasa,

*Gar* munung mo'minlig'idur, *gar* aning tarsolig'i (612-g'azal).

Shu o'rinda ta'kidlash o'rinliki, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi g'azallarining 20 o'rnida *va* teng hamda *gar* ergashtiruvchi bog'lovchilarni birgalikda qo'llanib, misralar mazmundorligini oshirishga xizmat qilgan. Jumaldan, "Navodir ush-shabob" devonining 14 baytli 606-g'azali[8] kamyob g'azallar sirasiga kirib, kulliyotda bunday g'azallar 5 tani tashkil etadi:

**Vagar** xud vasli iqboli muyassar bo'lsa bir soat,

Faridun taxti uzra bazm tuzdi, jomi Jam chekti. (606-g'azal 10-bayt)

Ushbu baytning mazmunini ham tahlil qilsak: lirik qahramon shu qadar ma'shuqaga intiqki, agar ma'shuqasining vasli bir muddat unga muyassar bo'lsa, u xuddi Faridun kabi bazm va yoki Jamshid kabi muborak jomida qadah ichadi, ya'ni oshiqning nazarida bir lahza go'zal ma'shuqa visoliga yetishishi uni cheksiz boyliklari bor shohlar kabi etadi. Bir qarashda muhabbat mavzusida yozilgandek ushbu g'azalda orifona ma'no mujassam. Haqiqiy oshiq Olloh bilan suhbatlashishdan qalbiga bir olam zavq-u shavq, surur his qiladi, Olloh ishq, Olloh nafasi, Olloh ruhining kayfiyatini tuyadi, shunga taslim bo'ladi[9].

To'rt ayog'lanib iting xayli aro men majnun,

**Gar** kesak otsang o'pay, **gar** so'ngak otsang ko'muray. (595-g'azal)

Ushbu baytda esa shoir **gar** shart ergashtiruvchi bog'lovchisini teng bog'lovchilar sirasiga kiruvchi *ayiruv* bo'lovchisi kabi qo'llamoqda. "**Toki** ko'nglum iztirobi-yu tanim titratmasi" baytdagi **toki** leksemasi aslida maqsad bo'g'lovchisi hisoblanadi. Navbatdagi baytda **go'yiyo** chog'ishtiruv bog'lovchisi bo'lib kelmoqda:

Ey Navoiy, topti mutrib sozidin ko'nglum navo,

**Go'yiyo** jon rishtasig'a tegdi mizrobi aning. (351-g'azal)

Ko'makchi ma'no va vazifasi jihatdan kelishik qo'shimchasiga yaqin turadi, lekin ular kelishik qo'shimchalariga qaraganda ma'noni aniq, konkret ifodalaydi[10]. Sof ko'makchilar asl lug'aviy ma'nosini yo'qotib, butunlay ko'makchiga aylanib qolgan so'zlardir. Ularning eng faollari: bilan, uchun, kabi, singari, sayin, yanglig', sari, uzra so'zlaridir Navoiy g'azallarida ko'p marta qo'llangan ko'makchilarning fikrni aniq va badiiy ohangda tasvir etishda ahamiyati beqiyos.

Xusho jununki, **chu** yuzlansam ul pariy sari, kibi (36-g'azal)

Navoiy **uzra** g'am-u dard qo'zg'alur ne ekin (36-g'azal)

Ki, sajda rost emas, egri **chun** bo'lur mehrob (50-g'azal)

Ulki **avval** tarkin ettim, ermas erdi juz murod (118-g'azal)

Oh o'tidinki, har **sori** sochtim sharoralar(153-g'azal)

Gulgum to'n **uza** qora chavuk naqsh (337-g'azal)

Visol gulshani **birla** ko'p o'lmag'il mash'uf (352)

Sipehr kom **ila** evrulmasa hazin bo'lma (352-g'azal)

Shioi xat **bila** ko'hsor **uza** oltun alam chekti (606-g'azal)

*Kabi, singari, yanglig', misli (misol)* ko'makchilari o'xshatish, solishtirish, qiyoslash ma'nosini ifodalashiga ko'ra ma'nodoshdir:

Bosh aro kestim alif yozg'an **alifdek** bosh aro. (18-g'azal)

Kim, bu **yanglig'** ganj topmas kimsa bu vayron aro. (20-g'azal)

Qil **kebi** jismimki hajring so'zi ichra to'lg'anur (351-g'azal)

Hamul qush **mislikim** ani muqayyad aylagay dome (577-g'azal)

Navoiy o'z ijodida so'z masalasiga alohida urgu beradi. U so'z haqida fikr yuritar ekan, dastavval, mutlaqo maqsadga muvofiq, so'zning ma'no quvvatiga katta e'tibor qaratadi[7] va o'z o'rnida yuklamalardan ham unumli foydalanadi. Yuklamalar so'z yoki gaplarga qo'shimcha ma'no yuklash uchun qo'llanadigan yordamchi so'z yoki affikslardir. Navoiy yuklamaning har ikkala turidan ham unumli foydalanish, orqali g'azallardagi bosh ma'noni yanada kuchaytirishga erishgan. G'azallarda kuchaytiruv, ta'kid, so'roq-taajub, inkor, o'xshatish-qiyoslash, turlaridan foydalangan. Quyida kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi qatnashgan g'azal misralaridan tahliliy namunalar keltirildi:

Navoiyding olding ko'ngul, jonni **ham** (31-g'azal)

Men-men-**u** bekaslig-**u** ayyomi hajr (380-g'azal)

Husn **ila** yolg'uz meni bedilni shaydo aylamas. (239-g'azal)

Yuqoridagi g'azallarda uchragan yuklamalar misra tarkibidagi so'zlarni bog'lash bilan birga, gapga emotsional-eksprissiv va modal ma'nolarni ham yuklab kelgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida -mi yuklamasi mantiqiy urg'u qaysi bo'lakka tushishidan qat'i nazar, doimo kesim oxiriga qo'shiladi[11]. Bu qoida eski o'zbek adabiy tiliga ham aynan mos keladi:

Gar unung jon olur ani desa **bo'lg'aymu** darig'

Kim, fido boshtin ayog'ingga sening jon hofiz. (287-g'azal)

Charx agar solsa yiroq yuz yil visolingdin meni,

Oyira **olg'aymu** bir soat xayolingdin meni. (607-g'azal)

*Aslo, hech, sira, na...na inkor* yuklamalari hisoblanib, so'z yoki gapga inkor ma'nosini yuklaydi. Quyida "Navodir ush-shabob" devonida uchragan inkor yuklamalari qatnashgan baytlardan namunalar keltirdik:

**Hech** yoqmaydur ul afsona manga (13-g'azal)

Ekmadi **aslo** vafo naxli jahon bo'stonida (558-g'azal)

Ayrim hollarda o'xshatish sodda gaplarda qiyos etalonida oldin *xuddi, go'yo* aniqlov yuklamasi ham qo'llanishi mumkin. Bunday holda ayni aniqlovchi yuklamasining mazmuniga ko'ra gapda ifodalanayotgan o'xshatish munosabati yana ham kuchayadi. Bu yuklama qiyos asosidagi belgining qiyoslanayotgan ob'ektlarning har ikkalasiga ham bab-baravar tegishli ekanligini alohida ta'kidlab, kuchaytirib ko'rsatadi. Bunday o'xshatish-qiyoslash yuklamalarini g'azallarda ham uchratishimiz mumkin:

Oy yuzung birla talashdi buki ko'ktur orazi,

Panjasi birla quyosh **go'yo** yuziga urdi koj (93-g'azal)

Qoshlaringdur **go'yi** ikki hinduiy otashparast,

Mayl qilg'on sajdag'a o'tluq uzoring yonida. (560-g'azal)

**Xulosa va takliflar.** Alisher Navoiy g'azallarini grammatik teglash – izohtalab shakldosh ya'ni omonimlik xususiyatiga ega so'z ma'nolarining tushunarli va o'qishli bo'lishini ta'minlash uchun muhim. Navoiy yashagan davr leksikologiyasida mavjud yordamchi so'z turkumlari bilan hozirgi tilshunosligimizdagi yordamchi so'zlarni qiyosiy tahlil qilish ham zamonaviy lingvistika sohasining tadqiq qilinishi muhim bo'lgan bir qismi sanaladi. Navoiy g'azallarini o'rganishda, shoirning so'z ko'lamini turlicha ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq qilishda grammatik tahlillarning o'rni va ahamiyati beqiyos.

## ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Танланган асарлар, III том, – Т., Ўздавнашр, 1948, В. –175.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, Ўзбекистон: 2002. – Б. 81.
3. Mahmudov N. Ulug' Navoiyning qutlug' tili bu. 2020. <https://yuz.uz/uz/news-ulug-alisherning-qutlug-tili-bu>.
4. Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Шарқ, 2012. – Б. 63.
5. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 8.
6. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 24.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raurova L., Qurbonova M., Abuzalova M.,
8. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик Тўртинчи том. Наводир уш-шабоб. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 439-440.

9. Комилов Н. Xizr chashmasi. – Тошкент: Ма'naviyat, 2005 – Б. 254.
10. Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2010. – Б. 59.
11. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – В.162.